Umarova Munira Muxitdinovna	



O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmining holati	1143
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	
Surxondaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....	1148
Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning dolzarb masalalari.....	1155
Axunova Ma'rifat Xakimovna	
Oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi	1159
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va malaka oshirishning roli.....	1166
Madalievna Nodira Miradilovna	
Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatini kompleks taqqoslama tahlili	1169
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li	
Xalqaro mehnat migratsiyasi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: samaradorlikni solishtirish	1174
Sultanov Anvar Abdullaevich	
O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq salohiyatini boshqarish	1180
Aipova Iroda Ikromovna	
Tijorat banklarida komplaens auditni tashkil etish va o'tkazishning uslubiy asoslari.....	1184
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
Scientific approach to the formation of a sustainable development strategy for industrial enterprises in the digital economy.....	1190
Maxsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni.....	1194
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini statistik va ekonometrik tahlil qilish (Andijon viloyati misolida).....	1206
Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li	
Перспективы инвесторов в осуществлении инвестиционного процесса	1212
Муртазаев Ардашер Зафар угли	
Transport korxonalarida ishchi xodimlarni barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash boshqaruvini takomillashtirish	1216
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
O'zbekiston Respublikasi yengil sanoat tashkilotlarida investitsiya loyihalarni ishlab chiqish va samaradorligini oshirish.....	1221
Xurramova Madina Mansur qizi	
Fuzzy integrals in economics	1228
Aymuratov Islam Kamalatdinovich	
O'zbekistonda ipoteka kreditlari bozorining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari	1233
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
Совершенствование денежно-кредитной политики центрального банка в условиях цифровой экономики.....	1238
Бердиназаров Зафар Улашович, Исаев Атабек Джурабаевич	
The role of digital assets in international finance and their impact on the global economy	1248
Juraeva Ra'no Abdullaevna, Murodaliyev Shahroz Obidjonovich	
Diversification of financial resources in commercial banks and their innovative management methods in digital transformation	1255
Xodjayeva Jeyrona Ravshonbek qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili	1262
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	1268
Saxibjonov Muzaffar Salijonovich	
Tijorat banklari transformatsiyasini amalga oshirishda qimmatli qog'ozlar bozori ta'sirining uslubiy asoslari	1274
Bobur Abrorovich Yusupov	



What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions.....	1283
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	
Kredit portfelini tahlil qilish asosida tijorat banklari faoliyatini optimallashtirish yo'llari	1289
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	



KREDIT PORTFELINI TAHLIL QILISH ASOSIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI

Jo'rayev Eldor Berdibekovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining kredit portfelini tahlil qilish asosida ularning faoliyatini optimallashtirish masalalari yoritilgan. Kredit portfelining tarkibi, sifati va xavf darajasini chuqur o'rganish orqali banklar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi va resurslardan samarali foydalanishi mumkinligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kredit siyosatini takomillashtirish va kredit xavfini boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik, tahlil, optimallashtirish, kredit xavfi, diversifikatsiya.

Abstract: This article explores ways to optimize the activities of commercial banks based on the analysis of their credit portfolios. It substantiates that an in-depth examination of the structure, quality, and risk level of credit portfolios enables banks to ensure financial stability and utilize resources more efficiently. The paper also provides practical recommendations on credit portfolio diversification, improving credit policy, and managing credit risks.

Key words: commercial bank, credit portfolio, financial stability, analysis, optimization, credit risk, diversification.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы оптимизации деятельности коммерческих банков на основе анализа их кредитного портфеля. Обосновано, что детальное изучение структуры, качества и уровня риска кредитного портфеля позволяет обеспечить финансовую устойчивость банков и эффективно использовать ресурсы. Также приведены практические рекомендации по диверсификации кредитного портфеля, совершенствованию кредитной политики и управлению кредитными рисками.

Ключевые слова: коммерческий банк, кредитный портфель, финансовая устойчивость, анализ, оптимизация, кредитный риск, диверсификация.

KIRISH

Bank sohasi bugungi global iqtisodiyotda yetakchi tarmoqlardan biri sanaladi. Tijorat banklarining asosiy vazifasi daromad olish bo'lganligi sababli, kreditlash faoliyati ularning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kredit mablag'lari xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy ehtiyojlari va investitsion loyihalarini moliyalashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda kuchli raqobat sharoitida tijorat banklarining moliyaviy aktivlarini samarali shakllantirish va ularni oqilona taqsimlash bank menejerlari va nazoratchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, kredit portfelini shakllantirish, uning tarkibini optimallashtirish hamda sifatli boshqarish kredit siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tiborga loyiqdir.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, kredit portfelining holati nafaqat bankning kredit siyosatini baholashda, balki kredit faoliyatining istiqboldagi natijalarini prognoz qilishda ham muhim indikator bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, tijorat banklari o'z kredit portfelini shakllantirish va tahlil qilish jarayonida kreditlarning miqdori, muddati, iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha taqsimoti, ta'minot shakllari, kredit sifati va boshqa muhim ko'rsatkichlarni muntazam tahlil qilib borishi zarur. Bu kabi tizimli yondashuv, o'z navbatida, kredit portfelining barqarorligi va sifati oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (1-rasm).



1. Bankning kredit siyosati maqsadlari va strategiyasiga muvofiq kredit limitlari tizimini shakllantirish

2. Kredit portfelini shakllantirishda alohida kreditlash obyektlari va turlari bo'yicha kredit mablag'lari ajratish

3. Kredit portfelining holati va uni boshqarishni tahlil

1-rasm. Tijorat banklari kredit portfelini shakllantirish jarayoni¹.

Kredit portfelini shakllantirish va uni optimallashtirish bankning kredit faoliyati umumiy maqsadi shakllantirilganda, kredit siyosati strategiyasi ishlab chiqilgandan so'ng boshlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda bank kredit portfelini optimallashtirish va samarali boshqarish bo'yicha turli metodologik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy tijorat banklari kredit portfelini shakllantirishga oid qarorlar qabul qilishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ehtiyojlari, bozor muhitidagi raqobat darajasi hamda bankning mavjud resurs salohiyatini chuqur tahlil qilishlari talab etiladi (Klaassen, 1998).

Kredit portfelini optimallashtirish jarayonida eng samarali yondashuv — bu bank mablag'larini boshqarishda optimal aralashmani shakllantiruvchi mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir. Bu yondashuv nafaqat resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, balki bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ham mustahkamlaydi.

Tobin tomonidan ilgari surilgan portfel nazariyasi (1965) ushbu jarayonda nazariy asos sifatida keng qo'llanilishi mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, banklar kredit portfelini shakllantirishda kutilayotgan daromadlilik, xavf darajasi va likvidlikni birgalikda hisobga olgan holda aktivlar tuzilmasini maksimal rentabellikka yo'naltiradi.

Cohen va Hammer (1967) o'tkazgan tadqiqotlarda kredit portfelini boshqarishda uch asosiy strategik maqsad o'rtasida optimal muvozanatni saqlash zarurligi ta'kidlanadi: bu — rentabellik, likvidlik va xavfsizlik. Banklar ushbu uchlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni inobatga olgan holda, kredit siyosatining natijadorligini oshirishga intiladilar.

Umuman olganda, tijorat banklarining aktivlar portfelini shakllantirish va boshqarish amaliyotiga to'rtta muhim omil sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi:

- a) mamlakatdagi amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy talablar,
- b) depozitlar bo'yicha xavfsizlik darajasi va ularni kafolatlash tizimi,
- c) iqtisodiyotda kredit resurslariga bo'lgan real talab hajmi,
- d) bank aksiyadorlari tomonidan yuqori daromadga erishishga bo'lgan intilish darajasi.

Mazkur omillarni to'g'ri tahlil qilish va ularga mos boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish, bank kredit portfelining nafaqat rentabelligini, balki umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklari kredit portfelini tahlil qilish va optimallashtirish yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar yig'ish uchun asosan statistik ma'lumotlar tahlili va iqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringi qo'llanildi. Ma'lumotlar banklarning yillik hisobotlari, rasmiy statistik manbalar va ilmiy adabiyotlardan olindi. Tahlil jarayonida korrelyatsiya va regressiya usullari, ko'rsatkichlarni solishtirish hamda dinamik o'zgarishlarni tahlil qilish usullari qo'llanilib, kredit portfelining sifat ko'rsatkichlari baholandi.

Tahlili va natijalar

Quyida keltirilgan 1-jadvalda tijorat banklarining kredit portfelini optimallashtirish jarayonida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar aks ettirilgan. Bugungi kunda tijorat banklari kredit resurslarini boshqarishda faqat o'z ichki imkoniyatlariga tayangan holda samarali natijalarga erishishlari tobora murakkablashmoqda.

¹ Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.



Kredit portfelini optimal shakllantirish va samarali boshqarish banklardan faqatgina ichki resurslarni emas, balki tashqi moliyaviy institutlar bilan tizimli hamkorlikni ham talab etadi.

Shu bois, boshqa moliyaviy tashkilotlar, jumladan, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish tijorat banklariga nafaqat kredit portfelining barqarorligini ta'minlashda, balki uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday hamkorlik kredit xavfini diversifikatsiya qilish, likvidlikni oshirish va kreditlash strategiyasini yanada moslashtirish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish muhim holatlar².

Holatlar	Bank kredit portfeli optimallashtirishdagi qadamlar
1-holat	Kredit portfelini tashkil qiluvchi kreditlarni baholash mezonlarini aniqlash;
2-holat	Tijorat banki kredit portfelining strukturasini aniqlash;
3-holat	Kredit portfeli tarkibidagi o'zgarishlar sabablarini baholash;
4-holat	Kredit portfelining sifatini aniqlash
5-holat	Bank kredit portfelida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini aniqlash

AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda kredit portfelini samarali shakllantirish va boshqarish (Credit Portfolio Management yoki Loan Portfolio Management — CPM) banklar hamda boshqa moliyaviy institutlar faoliyatida asosiy funksiyalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, tarkibida likvidligi past bo'lgan, turli shakldagi kreditlar mavjud bo'lgan yirik moliya institutlari uchun CPM yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy banklar faoliyatida optimal kredit portfelini shakllantirish nafaqat muhim vazifa, balki dolzarb muammolardan biri sifatida ko'riladi. Har qanday tijorat bankining kredit siyosatidagi strategik maqsadi — o'z resurslariga mos, muvozanatli va samarali kredit portfelini shakllantirishdan iboratdir. Biroq, mavjud kredit resurslarining hajmi, ularni jalb qilish shartlari, foiz stavkalari va boshqa cheklovlar sharoitida ushbu maqsadga erishish murakkab masala bo'lib, bank mutaxassislaridan doimiy tahlil va optimal qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Kredit portfelini optimallashtirish jarayoni bevosita kredit sifati, risklarni boshqarish, daromadlilik darajasini baholash va kredit faoliyati samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir bank o'zining ichki strategik yondashuvlari asosida kredit portfelini shakllantiradi va boshqaradi. Bu yondashuvlar o'zaro sezilarli farqlarga ega bo'lishi mumkin, chunki ular bankning resurs bazasi, riskka nisbatan munosabati, daromad olish strategiyasi va mijozlar segmentiga bog'liq holda shakllanadi.

Tijorat bankining optimal kredit portfeli quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

Kreditlar bank ixtiyoridagi resurslarning summasi va muddatiga mos bo'lishi;

Kutilayotgan daromadlilik darajasi maksimal bo'lishi;

Kredit risklari maqbul va minimal darajada saqlanishi.

Kredit portfelini optimallashtirish va sifatli boshqarish kreditlash tizimining asosiy komponenti bo'lib, u bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash hamda kredit risklarini oldini olish yoki ularni kamaytirishga qaratilgan.

Tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirish jarayoni bosqichlari grafik shaklda tasvirlangan bo'lib (quyidagi rasmda), bu bosqichlar orqali kredit portfelining strukturasini tahlil qilish, aktivlarni taqsimlash mexanizmini aniqlash va risklarni baholash mumkin.

Mamlakatimiz tijorat banklarining kredit portfeli tahlil qilinayotganda, kreditlarning umumiy bank aktivlaridagi ulushini baholash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu orqali banklar tomonidan shakllantirilgan kredit portfelining risklilik darajasi, daromadlilik va likvidlik ko'rsatkichlari haqida xulosalar chiqarish mumkin.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklari umumiy aktivlari 2024-yilda 769,3 trillion so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan deyarli uch baravarga oshgan. Shu bilan birga, bank aktivlari tarkibida kreditlar ulushi 2024-yilda 69,2 foizni tashkil etgan va bu ko'rsatkich yildan-yilga pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Ushbu holat kredit portfeli tarkibining diversifikatsiyalanayotganidan va boshqa aktiv turlari ulushi oshayotganidan dalolat beradi (2-jadval).

² Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.

2-jadval. Tijorat banklari aktivlari va ularning tarkibida kreditlarning miqdori va ulushi³.

Ko'rsatkichlar/Yillar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YalM, (trln. so'm)	524,0	580,2	734,6	888,3	1 065,8	1 450,6
Tijorat banklari jami aktivlari, (trln. so'm)	272,7	366,1	444,9	556,7	652,2	769,3
Tijorat banklari aktivlarining YalM dagi ulushi, (foizda)	52,1	63,2	60,5	62,7	61,2	53,03
Kredit qo'yimalari, (trln. so'm)	211,6	276,9	326,4	390,1	471,4	533,1
Kredit qo'yimalarining bank aktivlari tarkibidagi ulushi, (foizda)	77,6	76,5	73,4	70,1	72,3	69,2

2024-yilda iqtisodiyotga yo'naltirilgan kredit qo'yimalari hajmi o'tgan yilga nisbatan 19,6 foizga oshib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 533,1 trillion so'mga yetdi. Shuningdek, ushbu davrda kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 53,03 foizni tashkil etdi. Bu esa banklar tomonidan iqtisodiyotga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning salmog'i sezilarli darajada ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, tijorat banklarining kreditlash salohiyati ko'p jihatdan ularning kredit portfeli sifati bilan bevosita bog'liqdir. Kredit portfelining samarali shakllantirilishi va boshqarilishi banklarning resurslardan foydalanish samaradorligini belgilaydi. Shu sababli, tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish hamda ajratilgan kreditlarni maqsadli va yuqori rentabellik bilan boshqarishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Quyidagi 2-jadvalda tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilmasi yillar kesimida tahlil qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2018–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti va tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Bu jarayon banklar faoliyatining iqtisodiyotda tobora muhim o'rin egallab borayotganini ko'rsatadi. Jumladan, ularning xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy va investitsion xarajatlarini moliyalashtirishdagi ishtiroki yildan-yilga ortmoqda.

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bank aktivlari tarkibida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarning ulushi tahlil davri davomida izchil o'sib borgan. Agar 2018-yil boshida ushbu ko'rsatkich atigi 1,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib 5,7 foizga yetgan. Bu holat banklar investitsiya faoliyatining bosqichma-bosqich kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz tijorat banklarining aktivlar tuzilmasida asosiy ulush hanuzgacha kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa kreditlash bank faoliyatining markaziy yo'nalishi bo'lib qolayotganini anglatadi. Shu bilan birga, banklar boshqa aktiv turlarini ham bosqichma-bosqich kengaytirishga e'tibor qaratayotgani ularning diversifikatsiya siyosati izchil olib borilayotganini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzulishi, (mlrd. so'm va ulushi foizda)⁴.

Ko'rsatkichlar/ Yillar	Kredit qo'yimalari		Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar		Boshqa banklardagi mablag'lar - rezidentlar		Boshqa banklardagi mablag'lar - norezidentlar	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%
2018	164 670,1	76,8	2 277,0	1,1	6 374,3	3	13 545,4	6,3
2019	207 646,3	76,1	3 157,2	1,2	10 089,4	3,7	15 419,9	5,7
2020	270 212,8	73,8	9 447,7	2,6	13 146,0	3,6	21 700,5	5,9
2021	316 382,4	71,1	19 633,7	4,4	13 302,5	3	25 074,0	5,6
2022	378 909,2	68,1	31 507,9	5,7	17 423,7	3,1	37 688,3	6,8
2023	457 847,3	70,2	32 548,2	5,0	24 368,7	3,7	28 863,3	4,4
2024	514 693,5	66,9	59 614,1	7,7	29 176,6	3,8	36 039,4	4,7

Tijorat banklari faoliyatining asosiy daromad manbai sifatida kredit operatsiyalari muhim o'rin egallaydi. Aynan ushbu operatsiyalar banklarning foizli daromadlarining katta qismini shakllantiradi. Kreditlar bo'yicha

3 www.cbu.uz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

4 www.cbu.uz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



foiz stavkalarining shakllanishi bank marjasi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kreditlash jarayoni yuqori xavf bilan tavsiflanadi, ammo u banklarning asosiy strategik maqsadlariga — ya'ni maqbul likvidlik darajasini saqlagan holda maksimal daromadlilikka erishishga xizmat qilishi lozim.

Bugungi kunda tijorat banklari kredit resurslari sifatida faqat bank kapitali va jalb qilingan depozitlar bilan cheklanib qolmayapti. Aksincha, boshqa moliyaviy manbalar, xususan, xalqaro moliya institutlari, davlat fondlari va obligatsiya emissiyalari hisobiga ham faoliyat yuritmoqda. Bu esa kredit qo'yilmalarining tarkibiy tuzilmasini sezilarli darajada diversifikatsiyalash imkonini beradi.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda yuz bergan o'zgarishlar, jumladan, kreditlash manbalarining kengayishi, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, dollarlashuv darajasining ortishi va boshqa omillar natijasida kredit qo'yilmalari hajmi keskin oshdi. Xususan, 2017–2023-yillar davomida tijorat banklari kredit portfeli qoldig'ining yillik o'sish sur'ati o'rtacha 45,3 foizni tashkil etdi. Ushbu dinamikaga ta'sir qilgan asosiy omillardan biri — milliy valyutaning almashuv kursi hisobiga xorijiy valyutadagi kreditlarning qayta baholanishi hamda 2019-yilda O'zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot Jamg'armasi (O'TTJ) mablag'lari hisobidan ajratilgan taxminan 4,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi kreditlarning ushbu jamg'arma balansiga qaytarilishi bo'ldi.

Bank tizimi barqarorligini ta'minlashda kredit portfelining sifati va ushbu portfelning umumiy daromadliliigi muhim rol o'ynaydi. Buning uchun banklar kreditlash manbalarini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Ayniqsa, arzon davlat mablag'lari mavjud bo'lgan davrlarda, resurslar hajmi, ularning qiymati va jalb qilish shartlaridagi cheklovlar sharoitida bank kredit siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan mazkur omillarning to'g'ri boshqarilishiga bog'liq bo'ladi.

Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklari majburiyatlarining tarkibiy tuzilmasi yillar kesimida tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar banklar tomonidan jalb qilinayotgan mablag'lar manbalari qanday o'zgarayotganini, ularning barqarorlik darajasi va diversifikatsiya holatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega (4-jadval).

4-jadval. Tijorat banklari majburiyatlarining tarkibiy tuzulishi⁵ (mlrd. so'm, ulushi foizda).

Ko'rsatkichlar/ Yillar	Depozitlar		Olingan kreditlar va lizinglar		Boshqa banklarning mablag'lari - rezidentlar		Boshqa banklarning mablag'lari - narezidentlar	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%
2018	70 001,4	37,3	104 378,8	55,6	6 390,7	3,4	511,6	0,3
2019	91 009,0	41,1	105 252,2	47,5	9 869,4	4,5	922,3	0,4
2020	114 746,9	37,3	151 704,0	49,3	13 001,4	4,2	3 175,4	1
2021	156 189,8	41,8	173 750,3	46,5	13 288,6	3,6	4 670,8	1,2
2022	216 737,5	45,4	186 614,5	39,1	18 780,8	3,9	22 798,5	4,8
2023	241 687,4	43,5	224 351,2	40,4	24 577,3	4,4	20 074,5	3,6
2024	308 692,1	47,2	234 667,5	35,9	25 008,6	3,8	16 428,6	2,5

2023-yilda global moliya bozorlarida barqarorlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlar sezilarli darajada kuchaydi. AQSh va Yevropa moliyaviy tizimlarida yuzaga kelgan noaniqlik bir qator yirik banklarning moliyaviy yo'qotishlarga duchor bo'lishiga olib keldi. Xususan, AQShda Silicon Valley Bank, Signature Bank va First Republic Bank bankrot deb e'lon qilinishi, shuningdek, Shveysariyada Credit Suisse bankining UBS tomonidan qo'shib olinishi ortidan moliya sektoridagi defolt xavfi yanada kuchaydi. Ushbu voqealar global moliyaviy bozorlar ishtirokchilarida xavotir uyg'otib, tebranuvchanlik va noaniqlik darajasining oshishiga sabab bo'ldi.

Bunday murakkab iqtisodiy sharoitda tijorat banklari uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni samarali aktiv operatsiyalarga yo'naltirish jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Turli o'rganishlar va tahlillarga ko'ra, xalqaro va mahalliy tajribada tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish, kredit qo'yilmalari manbalarini boshqarish usullari va mexanizmlari bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib bormoqda.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari quyidagicha shakllangan: aktivlar rentabelligi (ROA) 1,4 foizni, kapital rentabelligi (ROE) esa 6,6 foizni tashkil etdi. Shu davrda banklar tomonidan olingan sof foyda 13,6 trillion so'mga yetib, 2021-yilga nisbatan 6,1 trillion so'mga ko'paydi. Taqqoslash uchun aytilsa, ROA ko'rsatkichi 1,2 foiz bandga, ROE esa 7,2 foiz bandga o'sgan. Ushbu natijalar bank sektorining daromadlilik salohiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Statistik bulletin, "Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari", ma'lumotlari asosida tayyorlandi, 2024-yil.



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning asosiy qismi uzoq muddatli kreditlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, tahlil davrida qisqa va uzoq muddatli kreditlarning umumiy kredit portfelidagi nisbati muayyan darajada o'zgaruvchan bo'lib qolmoqda. Bu esa banklar tomonidan mijozlarning moliyaviy ehtiyojlari, kredit riski va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda kredit siyosatini moslashtirib borilayotganini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida tijorat banklari uchun kredit portfelini optimallashtirish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Kredit riski darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni tizimli tarzda baholash hamda xavf darajasini minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

Kredit portfelining tarkibini kredit risklari, mijozlar segmentatsiyasi va kredit turlari bo'yicha optimallashtirish orqali riskni diversifikatsiyalash;

Kredit portfelining likvidlilik va daromadlilik darajasini ta'minlash hamda ularning o'zaro muvozanatini saqlagan holda kreditlarni diversifikatsiya qilish;

Potensial kredit yo'qotishlariga qarshi yetarli darajada zaxira shakllantirishni baholash, uni doimiy ravishda yangilab borish va mavjud xavflarga moslashtirish;

Qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligi va kreditga layoqatlilik darajasini aniqlash, shuningdek, ularning moliyaviy holatidagi ehtimoliy o'zgarishlarni prognoz qilish;

Kredit siyosatini kredit portfelini optimallashtirishga yo'naltirish, bu borada bankning barcha bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish va har bir xodimning aniq funksional vazifalarini belgilash.

Xulosa qilib aytganda, kredit portfelini chuqur va tizimli tahlil qilish, uning tarkibi va sifati ustidan doimiy nazorat o'rnatishni taqozo etadi. Bugungi iqtisodiy sharoitda bank kreditlarining hajmi ortib borayotgani, turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar sonining ko'paygani sharoitida banklar o'z kredit faoliyatini yanada puxta rejalashtirishi va optimal kredit portfeli asosida resurslarni oqilona joylashtirishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat bank faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish jarayonlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Otamurodov H.H. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish. – Toshkent, 2019.
2. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008.
3. Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018.
4. Rasulov T.S. va Ziyodilloev X.R. Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish. Monografiya. – Toshkent, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018–2024-yillardagi tijorat banklari faoliyati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari.
6. Omonov A.A. "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari". Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, Toshkent, 2008.
7. Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018-y.
8. Герасина Ю.А., Расулов Р.М. Управление кредитным портфелем коммерческого банка // Бизнес в законе – 2011-у.
9. Omonov A.A. "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari". Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, Toshkent, 2008.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
